






2020- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **4928,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3289 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 245 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **5,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **70,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **24,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **11,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,6 %**) o'sishidir.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.01.2020-yil	01.01.2021-yil	
Qashqadaryo viloyati	3044	3289	108,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	792	838	105,8
Shahrisabz	131	139	106,1
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	137	145	105,8
Dehqonobod	137	151	110,2
Qamashi	170	181	106,5
Qarshi	353	384	108,8
Koson	256	273	106,6
Kitob	125	133	106,4
Mirishkor	74	83	112,2
Muborak	188	188	100,0
Nishon	101	118	116,8
Kasbi	130	150	115,4
Chiroqchi	178	203	114,0
Shahrisabz	115	115	100,0
Yakkabog'	157	188	119,7


**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (25,5%), Qarshi (11,7%) va Koson (8,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **647,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **78,9 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,8 %** punktga kamayib, **13,1 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,1 %** i yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **89,2 %**), G'uzor (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,5 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,4 marta**), va Koson tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **18,0 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **32,7 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajarib boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **59,3** %i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,3** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **102,1** %ni tashkil etgan holda **2921,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,6** % ni tashkil etdi yoki **1359,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **110,5** % ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**


o'sish sur'ati, % da

ulushi, % da



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **227,2** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4686,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,9 %** va **95,1 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**Hududlar kesimida qurilish ishlari.
(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Qashqadaryo viloyati	4928,2	100,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	1259,6	100,5	25,7
Shahrisabz	282,9	100,1	5,7
<i>tumanlar:</i>			
G‘uzor	432,5	100,1	8,8
Dehqonobod	135,0	100,4	2,7
Qamashi	117,0	100,3	2,4
Qarshi	423,1	100,0	8,6
Koson	547,8	100,0	11,1
Kitob	317,6	100,1	6,4
Mirishkor	126,6	100,0	2,6
Muborak	218,4	100,4	4,4
Nishon	163,2	100,4	3,3
Kasbi	144,3	100,0	2,9
Chiroqchi	335,4	100,0	6,8
Shahrisabz	133,1	100,2	2,7
Yakkabog‘	291,7	100,3	5,9

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-dekabr**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 63,9 % i yoki **3151,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

63,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **319,6** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 10,1 % ni tashkil etdi

10,1 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1597,2** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 50,7 % ni tashkil etdi.


50,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1234,2** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 39,2 % ni tashkil etdi.

39,2 %

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Qarshi sh. (1159,6 mlrd. so'm), Koson (517,6 mlrd. so'm), G'uzor (432,5 mlrd. so'm), Qarshi (423,1 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi
Tel.: 75 221-32-47